MotoLyrics.com
Biggest, regularly updated and free lyrics database

Yulduz Usmanova
"Bu bir kam dunyo"

Visit "Bu bir kam dunyo" on MotoLyrics.com

Bu dunyoning yarmi baxt yarmi qayg'u
Bu dunyoning yarmi dard yarmi kulgu
Bu dunyoning yarmi chin yarmi yolg'on
Bu dunyoning yarmi do'st yarmi dushmon

Bu dunyoning yarmi o'ch yarmi alam
Bu dunyoning yarmi to'y yarmi motam
Ikki yorda bir butun bo'lolmadik
Ishqimizga umrlar tilolmadik

Bu bir kam dunyo bo'lsa
Tun yarim kunduz yarim
Inson butun man desa
Baxt yarim omad yarim

Bu birkam dunyo bo'lsa
Tun yarim kunduz yarim
Inson butun man desa
Baxt yarim omad yarim

Hech bo'lmasa baxtim deb meni alda
Sochlaringni silashga qo'lim kalta
Osmonimda oy bo'lib bir to'lmasang
Men nechun hofiz bo'ldim sen bo'lmasang

Tilimga bir so'z keldi shu asnoda
Uchrashamiz ikkimiz u dunyoda
Bu dunyoning yarmi baxt yarmi qayg'u
Bu dunyoning yarmi dard yarmi kulgu

Bu birkam dunyo bo'lsa
Tun yarim kunduz yarim
Inson butun man desa
Baxt yarim omad yarim

Bu birkam dunyo bo'lsa

Tun yarim kunduz yarim
Inson butun man desa
Baxt yarim omad yarim

Visit Yulduz Usmanova page on MotoLyrics.com, to get more lyrics and videos.